

# FAN, TA'LIM, TEKNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

## 7-8-SINF ONA TILI DARSALARIDA EVFEMIZMLARDAN FOYDALANISHNI TA'MINLASH YO'LLARI

**Gulamova Dilobar Imamkulovna**

Osiyo Xalqaro Universiteti o`qituvchisi

**Abdujaborova Mushtariy Jamol qiz**

Osiyo xalqaro universiteti 13-FT(i)-23 guruh talabasi

Ona tilining yangilangan dasturi<sup>1</sup>ga muvofiq o'rta umumta'limning 7-sinfida ona tili mashg'ulotlari uchun (fakultativ dars soatlari bilan birga) 136 soat vaqt berilgan bo'lib, shundan 10 soati 6-sinfda o'tilgan «Morfologiya» sathini takrorlashga, 17 soati «Olmosh» mavzuiga, 18 soati «So'zlarning munosabat shakllari» sabog'iga, 7 soati o'tilganlarni takrorlashga, qolgan 38 soati «Morfologiya» sathining «Yordamchi so'z turkumlari» qismini o'rganishga, shuningdek, qolgan 12 soati modallar, undovlar, tasdiq/inkor so'zlarni o'rganishga va qolgan soatlар takrorlash hamda yozma ishlarga ajratilgan soatlardir.

Ona tili ta'limi uchun ajratilgan o'quv soatlari va mavzulari silsilasidan ko'rinib turibdiki, 7-sinf ona tili darslarida evfemizmlarni o'qitish uchun maxsus soatlari ajratilmagan.

Ona tilining yangilangan dasturi va DTS talablariga muvofiq **7-sinf o'quvchilarining o'zlashtirishi kerak bo'lgan zaruriy bilimlar** quyidagilar:

**Mustaqil va yordamchi so'z turkumlari.** Olmosh, uning lug'aviy ma'nosi, morfologik belgilari va sintaktik vazifasi. Olmoshning ma'no turlari. Olmoshlarning uslubiy qo'llanishi.

Fe'l. Matnda fe'llarning zamon jihatdan uyg'unligi. Yetakchi va ko'makchi fe'llar.

Sifatdosh. Ravishdosh. Harakat nomi.

Taqlid so'zlar, ularning ma'nosi va gapdagi vazifasi.

Modal so'zlar, ularning ma'nosi va gapdagi vazifasi.

Yordamchi so'zlar. Ko'makchilar, ularning turlari: sof ko'makchilar, ko'makchi vazifasidagi so'zlar.

Bog`lovchilar, ularning turlari: teng bog`lovchilar, ergashtiruvchi bog`lovchilar.

Yuklamalar, ularning turlari.

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi umumiy o'rta ta'limning milliy o'quv dasturi. 1-11-sinflar. 2020-yil.-166 bet.  
<http://uzviylik.tdi.uz/>

# FAN, TA'LIM, TEKNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

Undovlar, ularning turlari.

## Sintaksis.

Fe'lli birikma, otli birikma. O'zlashtirma gap. O'zlashtirma gapda tinish belgilari. Ega bilan kesimning orasida tirening ishlatilishi. Dialogda tinish belgilarining ishlatilishi.

Ona tilining yangilangan dasturi va DTS talablariga muvofiq **7-sinf o'quvchilarining egallashi zarur bo'lgan ko'nikma va malakalar** quyidagilar:

Grammatik atamaga asoslanib grammatik vositani eslay olish.

O'z nutqining grammatik vositalar hisoviga boyiganligini namoyon eta olish.

Olmoshning ma'no turlarini, ko'makchilarning, bog`lovchilarning va yuklamalarning turlarini farqlay olish; so'z turkumlarining uslubiy qo'llanishini ajrata bilish.

Fikrni yozma ravishda bayon eta olish. Miqdoriy ko'rsatkichi: 14-16 gap; sifat ko'rsatkichlari: gaplarda fikrni aniq, mantiqiy izchillikda yorita olish; mustaqil gaplarni, qo'shma gap qismlarini, uyushiq bo'laklarni o'zaro bog`lashda teng va ergashtiruvchi bog`lovchilardan, matniy sinonimlardan, boshqa vositalardan foydalana olish; xatboshilarni, abzaslarni to'g'ri ajrata olish, matniy sinonimlarni ishlata bilish; fikr izchilligini ta'minlash.

Rivoya-matn, tasvir-matn, muhokama-ma'ruza yoza olish. Ariza yoza olish.

So'z ishlatishda nutq uslublari doirasidagi qoidalarga amal qilish.

Tub va yasama so'zlarni, so'z turkumlarining ma'no turlarini farqlay olish. So'zlar, so'z shakllari, so'z birikmali, gaplar, matnning biror qismini morfologik, sintaktik va uslubiy tahlil qila olish.

Xatboshi bilan abzasni farqlay bilish. Abzas bilan kichik mavzu munosabatini bilish.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lif to'g'risida"gi Qonuni 7-moddasida "Davlat ta'lif standartlari umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'lif mazmuniga hamda sifatiga qo'yiladigan talablarni belgilaydi", deyilgan. O'quvchining bilim saviyasiga qo'yiladigan talab esa, ta'lif jarayoni oldiga qo'yiladigan ijtimoiy talab bilan belgilanadi. Shunday ekan, davlat ta'lif standartlari, shu jumladan, ona tili davlat ta'lif standarti ham ta'lif jarayoni oldiga qo'yilgan ijtimoiy talablardan kelib chiqqan holda belgilab berildi. Ona tili ta'lifi oldiga qo'yilgan ijtimoiy buyurtma o'quvchi shaxsini fikrlashga, o'zgalar fikrini anglashga va shu fikr mahsulini og'zaki hamda yozma shaklda savodli bayon qila olishga, ya'ni kommunikativ savodxonlikni rivojlantirishga

## FAN, TA'LIM, TEKNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

o'rgatishdan iborat. Shundan kelib chiqqan holda ona tili ta'limi oldiga ijtimoiy jihatdan mukammal shakllangan, mustaqil fikrlay oladigan, nutq va muloqot madaniyati rivojlangan, savodxon shaxsni kamol toptirish maqsadi qo'yiladi.

—o'quvchining fikrlash salohiyatini, aqliy rivojlanishini, mantiqiy tafakkurini o'stirish;

—o'quvchilarni o'z-o'zini, moddiy borliqni tilning ifoda vositalari yordamida anglashga hamda o'z fikri va his-tuyg`ularini ona tilining keng imkoniyatlari doirasida bayon eta olishini ta'minlash vazifalarini hal etishga yo'naltiriladi.

Standartlashtirishning umumiy talab va mezonlariga ko'ra ona tili ta'lim standarti kommunikativ modelga asoslangan ta'lim mazmunini mo'ljallagan holda belgilab berildi.

Ona tili ta'lim standarti ona tilidan belgilanadigan ta'lim mazmunining ijtimoiy talab taqozo qilgan majburiy hajmini hamda o'quvchilarning yosh va taraqqiyot darajasi, ehtiyoj va imkoniyatlarini hisovga olgan holda tanlanadigan o'quv yuklamasining hajmini, umumiy o'rta ta'lim maktablari bitiruvchilarining bilim, ko'nikma, malakalariga qo'yiladigan talablarni belgilab beradi.

Ona tili ta'limi natijasida o'quvchilar egallagan bilim, ko'nikma va malakalar uch parametrli standart ko'rsatkichlar asosida tekshiriladi va aniqlanadi.

**1.O'qish texnikasi.** Bu parametr orqali o'quvchining notanish bo'lgan matnni ifodali o'qiy olish ko'nikmasi aniqlanadi. Bunda miqdoriy ko'rsatkich sifatida ifodali o'qish tezligi, ya'ni minutiga berilgan matndan nechta so'z o'qiy olish ko'rsatkichi olingan. Sinfdan sinfga o'tish davrida miqdoriy ko'rsatkichdagi so'zlarning soni oshishi bilan birga berilgan matnni o'qishdagi talablar ham bolaning yoshiga monand ravishda ortib boradi.

**2.O'zgalar fikrini va matn mazmunini anglash malakasi bolaning og`zaki bayon qilinayotgan o'zgalar fikrini hamda yozma matn mazmunini anglay olish darajasini aniqlash** maqsadida kiritilgan. Bu parametr o'zgalar fikrini va matn mazmunini anglash hamda uni og`zaki qayta bayon qila olish darajasini aniqlaydi.

**3.Fikrni yozma shaklda bayon etish malakasi** (tugal fikr ifodalangan matn) murakkab jarayon bo'lib, ona tili ta'limining maqsadi shu parametrda mujassamlashadi. O'quvchining ona tili ta'limi jarayonida egallagan ko'nikma va malakalari u yaratgan matnda aks etadi. Bu parametr buyicha ta'lim sifatining natijasini baholashda o'qituvchi tomonidan o'quvchi egallagan quyidagi ko'nikmalarning darajasi aniqlanadi:

a) fikrning mantiqiy izchilllikda ifodalanganligini aniqlash;

## FAN, TA'LIM, TEKNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

b) fikrlash, mavzuning murakkablik darajasini aniqlash (sodda, murakkab, konkret, mavhum va hokazo);

B)tavsifning mavzuga muvofiqligini va tavsifning qiymatini aniqlash;

g) tavsifda tilning ifoda vositalaridan maqsadga muvofiq foydalanish darajasini aniqlash;

d) imloviy (yozma) savodxonlikning sifatini aniqlash.

Ona tili ta'limi jarayonida pedagogikaning ta'lim va tarbiya birligi tamoyiliga rioya qilinadi hamda izchil amalga oshirib boriladi.

O'quvchilar dunyoqarashini muntazam boyitib borish, mustaqil fikrlash ko'nikma va malakalarini yanada rivojlantirish kabi maqsadlardan kelib chiqib fanlararo bog`lanish yo'lga qo'yiladi. Bunda darslikda beriladigan amaliy mashqlarning adabiy jarayon, tarixiy voqeа-hodisalar, tabiiy boyliklar, hayvonot olami, fizikaviy va ximiyaviy hodisalarga oid matnlardan tanlanishiga e'tibor qaratiladi.

Yuqoridagilardan ko'rinish turibdiki, o'rta umumta'limning 7-sinf o'quvchilari 6-sinfda o'rganishni boshlagan «Morfologiya» sathini yakunlab «Sintaksis» bo'limiga kirishni boshlashadi. Ushbu sinfda ham o'quvchilarda nutq madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish o'ta muhim vazifa ekanligi sir emas. Tabiiyki, bu o'rinda ham evfemizmlar ustida ishlash ishlari davom ettirilishi kerak.

Ma'lumki, olmoshlar boshqa so'z turkumlariga qaraganda ko'proq evfemik vazifa bajaradi. «Olmoshlearning uslubiy qo'llanishi» mavzuini o'tishda o'quvchilarga evfemizmlarni singdirish muhimdir. Masalan, "siz" olmoshi shaharliklar nutqida qishloqliklar nutqiga nisbatan, vodiyliklar nutqida respublikamizning boshqa viloyatlaridagilar nutqidagiga nisbatan ancha faol qo'llanadi. Vodiyda, ayniqsa, Marg`ilon shahrida, nafaqat turmush o'rtoqlarini, balki farzandlarini ham sizlab gapiruvchi otalar ko'plab topiladi.

O'zbekistonning hamma hududlarida bovo, buvi, ota, ona, amaki, amma, tog'a, xola, aka, opa kabi katta yoshli tinglovchilarga sizlab, nabira, farzand, jiyan, uka, singil singari kichik yoshdagi tinglovchilarga asosan senlab murojaat qilish kuzatiladi. Shuningdek, ayollarning o'z umr yo'ldoshlariga "siz" deb murojaat qilishlari belgilangan me'yor bo'lib, "siz"ning "sen"ga aylanishi o'zbek nutq odatining qo'pol buzilishidan dalolatdir.

Xalqimizning "Yaxshi topib gapiradi, yomon qopib" degan maqoli zamirida ham nutq egasiga xos fe'l-atvorning ijoviy yoki salbiy jihatiga ishora sezilib turadi. Ko'pincha, nutqiy muloqot chog'ida qo'pol so'zlar o'mida ko'rsatish olmoshlearning qo'llanilishini kuzatamiz. Masalan, o'g'ri, fohisha, ichuvchi, kashanda, kundosh, o'ynash o'rnida ana u, ana shu, anovi (Endi bir

## FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

*kamim u bilan bir dasturxonda o'tirishimmi? Aslo rozi emasman.* (O.Yoqubov) (Bu o'rinda kundosh ma'nosida ishlataliyapti.); *erim o'rnida u kishi* (-Uyda u kishim yo'q edilar, -dedi Maston bir oz taraddudlanib. (Oybek); homila o'rnida u (-Yomon gaplarni aytmang, u eshitadi, -dedi ayol qorniga ishora qilib. (Nosir Fozilov)

O'quvchilarga quyidagi kabi lug'atlar tuzdirib borish ham o'rinlidir.


Nº	Nutq uchun qo'pol hisovlangan so'z	Evfemizmlari	Misollar
1	<i>ablah, yaramas, razil</i>	chidab bo'lmaydigan	Homid chidab bo'lmaydigan toifadan.
2	<i>ahmoq, tentak, telba, go'sxo'r, laqma</i>	xayoli joyida emas, xayoli bejo, aqli noqis, kamroq o'ylaydigan, aqlidan ayrılgan	Qurvonbibi allaqachon aqlidan ayrılgan edi.
3	<i>aldamchi, aldoqchi, firibgar, yolg'onchi, va'dasiz, qallob, tovlamachi, aferist</i>	rosti kam, gapni oladigan, beip bog'laydigan, xato gapiRADIGAN, noto'g'ri aytadigan	Ha, usta, gapni olasiz-da! Bechoralarni beip bog'laysiz! (U.Hamdam)
4	<i>aqlsiz, beaql, nodon, johil, bexirad</i>	xatosi ko'p, ko'p adashadigan	Hayotda ko'p adashadigan odamlarga ergashma, bolam.
5	<i>yolg'on gapiradi</i>	xato gapiradi, xato qiladi, noto'g'ri aytadi	Ichki bir tuyg'u uning og'ziga qulf urishga urinayotganligini sezib tursa-da, imonini yutdi, xato qildi. (U.Hamdam)
6	<i>xotin</i>	umr yo'ldoshi, rafiqo, oila, bolalar, bolalarning onasi	Yaxshi umr yo'ldosh yarim xazina demakdir.
7	<i>erga bermoq</i>	uzatmoq, turmushga bermoq, chiqarmoq	Qizimizni uzatyapmiz, to'yga albatta aytamiz.

## FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

<b>8</b>	<b><i>ishton</i></b>	lozim, kiyimning pasti	Ba'zan o'zbekcha kiyimning pasti kiyilmasa, xunuk ko'rinish beradi.
<b>9</b>	<b><i>tuberkulyoz</i></b>	uzun kasal, uzun og'riq, yomon og'riq	Shokir ota uzun og'riqning oqibatini yaxshi biladi. (Oybek)
<b>10</b>	<b><i>o'ldi</i></b>	o'tdi, uzildi, yuragi to'xtadi, joni uzildi, nasibasi tugadi, paymonasi to'ldi, so'ldi....	Bemor tongga yaqin uzildi. (A.Qahhor)
<b>11</b>	<b><i>ajrashishdi</i></b>	yulduzi yulduziga to'g'ri kelmadni, gaplari o'qimadi, kelishishmadni	Uch bolali bo'lganda yulduzlari yulduzlariga to'g'ri kelmabdi, tavba.

O'quvchilarga videoproektor orqali quyidagi topshiriqlarni bajartirish mumkin. O'quvchilar slayd markazidagi gapni davom ettirishlari uchun berilgan so'zlardan nutq madaniyati va matn mazmuniga moslarini topishlari shart qilib qo'yiladi.

### 1-slayd topshiriq



### 2-slayd topshiriq.

## FAN, TA'LIM, TEKNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI




3-slayd topshiriq.




4-slayd topshiriq.

## FAN, TA'LIM, TEKNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI




5-slayd topshiriq.



6-slayd topshiriq.

## FAN, TA'LIM, TEKNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI



O‘quvchilar topshiriqlarni bajarib bo‘lishgach, ularga to‘g’ri variantlar tushirilgan slayd ko‘rsatiladiki, o‘quvchi o‘z-o‘zini tekshirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

### JAVOBLARINGIZNI TEKSHIRING

1. Mashrabni Marvda Mahmud Qatag`on qatl ettirdi.
2. Mir Alisher Navoiy 1501-yilda vafot etdi.
3. Nurali avtobusga chiqqan yoshi ulug` ayolga joy berdi.
4. Yolg`onchi kishi o‘zini ham hurmat hilmaydi.
5. Qurbonnazarning ikkinchi farzandi ham aqlan zaif tug`ildi.
6. Ona qizini uzatish taraddudida edi.

O‘quvchilar nutqini silliqlashda quyidagi kabi tarqatma materiallarga murojaat etish ham mumkin. Masalan, «Morfologiya» sathining mustaqil so‘z turkumlarini takrorlash jarayonida.

### 1-kartochka

## FAN, TA'LIM, TEKNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

«...*Ushbu tarixda dushanba kuni ramazon oyining to'rtida Umarshayx mirzo jardin kabutar va kabutarxonan bila uchub, shunqor bo'ldi. O'ttiz to'qquz yoshar erdi...*» Tagiga chizilgan birliklar qaysi so'zning o'mida qo'llanilganligini ayting va ularning farqini tushuntiring.

### 2-kartochka

«...*Sarvi gulning soyasida so'ldi gul, netmak kerak?*» Tagiga chizilgan birliklar qaysi so'zning o'mida qo'llanilganligini ayting va ularning farqini tushuntiring.

### 3-kartochka

«..(Farhodning) fano bodasidin paymonasining to'lg'oni va ul paymonani ajal soqiylari ilgidin sipqora ichgani va sog`olmas maydin jonon yodi bila mast bo'lub jonidan kechg`oni» Tagiga chizilgan birliklar qaysi so'zning o'mida qo'llanilganligini ayting va ularning farqini tushuntiring.

### 4-kartochka

*Qilib jononi otin tilga ta'lim, Tutub jonon otin, jon etti taslim.*» Tagiga chizilgan birliklar qaysi so'zning o'mida qo'llanilganligini ayting va ularning farqini tushuntiring.

### 5-kartochka

«*Bo'ri polvon ana shu qizni ko'z ostiga oldi.*» Tagiga chizilgan birliklar qaysi so'zning o'mida qo'llanilganligini ayting va ularning farqini tushuntiring.

### 6-kartochka

«*O'g'ri baland poshna tuflida qiynalib yurayotgan do'mboqqina ayolning sumkazini ko'z ostiga oldi.*» Tagiga chizilgan birliklar qaysi so'zning o'mida qo'llanilganligini ayting va ularning farqini tushuntiring.

### 7-kartochka

«*Suluv Bo'ri polvonning ko'ngliga o'tirib goldi.*» Tagiga chizilgan birliklar qaysi so'zning o'mida qo'llanilganligini ayting va ularning farqini tushuntiring.

### 8-kartochka

«*Mayda gap-so'zlar qizning ko'ngliga o'tirib goldi.*» Tagiga chizilgan birliklar qaysi so'zning o'mida qo'llanilganligini ayting va ularning farqini tushuntiring.

### 9-kartochka

«*Qizning yoshi o'ttizdan oshgan bo'lsa-da, hamon ota-onasining xizmatini qilib yuribdi.*» Tagiga chizilgan birliklar qaysi so'zning o'mida qo'llanilganligini ayting va ularning farqini tushuntiring.

### 10-kartochka

# FAN, TA'LIM, TEKNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

«*Bu ot uloqda chapa olmaydi.*» Tagiga chizilgan birliklar qaysi so‘zning o‘rnida qo‘llanilganligini ayting va ularning farqini tushuntiring.

Bu kabi misollarni ko‘plab keltirish mumkin.

Zero, evfemizm qo‘llashning mazkur ko‘rinishlari odob-axloq normalari (etiket) bilan bog’liq. Evfemaning bu turidan so‘zlovchi tinglovchi yoki o‘zga (uchinchi shaxs)ni xafa qilib qo‘yish, noqulay ahvolga solishdan saqlanish uchun foydalanadi hamda ifodalanayotgan birlikka nisbatan yumshoq va chiroyliroq birlikni tanlaydi.

1. Dilobar Imamkulovna Gulamova. (2023). METHODS OF FORMING THE CULTURE OF USING EUPHEMISMS IN 5-6TH GRADE NATIVE LANGUAGE CLASSES. *International Journal Of Literature And Languages*, 3(11), 61–67. <https://doi.org/10.37547/ijll/Volume03Issue11-09>

2. Gulamova, D. I. (2023). NUTQ MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISHDA EVFEMIZMLARNING O‘RNI.

3. Gulamova, D. . (2023). ЭВФЕМИЗМЫ КАК ФАКТОР РАЗВИТИЯ КУЛЬТУРЫ РЕЧИ УЧЕНИКОВ. *Modern Science and Research*, 2(8), 231–236. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/22630>

4. Gulamova, D. I. (2022). USE OF CREATIVE TASKS IN TEACHING THE NATIVE LANGUAGE AT SCHOOL. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(2), 841-846.

5. Gulamova, D. (2023). USE OF CREATIVE TASKS IN TEACHING THE NATIVE LANGUAGE AT SCHOOL. *Modern Science and Research*, 2(7), 322-327.

6. Gulamova, D. . (2023). EUPHEMISM AS A FACTOR IN THE DEVELOPMENT OF STUDENTS’ SPEECH CULTURE. *Modern Science and Research*, 2(4), 175–181. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/19207>

7. Gulamova, D. . (2023). EUPHEMISM AS A FACTOR IN THE DEVELOPMENT OF STUDENTS’ SPEECH CULTURE. *Modern Science and Research*, 2(4), 175–181. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/19207>

8. Rokhila Bafoeva 2023. The Concept of Education in English and Uzbek Proverbs. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education* (2993-2769). 1, 9 (Nov. 2023), 292–296.

9. Bafoeva, R. (2023). NEW METHODS OF TEACHING FOREIGN LANGUAGES. *Modern Science and Research*, 2(10), 58-63.

## FAN, TA'LIM, TEKNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

10. Pirmanovna, N. G., & Bafoeva, R. (2022). NATIONAL AND CULTURAL PROVERBS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES AND THEIR UNIVERSAL FEATURES. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(4), 500-503
11. Pirmanovna, N. G., & Bafoeva, R. (2023). INGLIZ VA O'ZBEK MAQOLLARING GENDER XUSUSIYATLARI. *World of Science*, 6(5), 167-169.
12. Pirmanovna, N. G., & Bafoeva, R. (2023). O'ZBEK VA INGLIZ MAQOLLARINING JAMIYATDAGI TUTGAN O'RNI VA ULARNING O'RGANILGANLIK DARAJASI. *SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, 2(14), 74-76.
13. Jabborova, A. (2023). THE CATEGORY OF VOICE IN ENGLISH GRAMMAR. *Modern Science and Research*, 2(7), 430-433. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/22266>
14. Jabborova, A. (2023). WHAT IS DESIGN THINKING?. *Talqin Va Tadqiqotlar*, 1(13). извлечено от <http://talqinvatadqiqotlar.uz/index.php/tvt/article/view/941>
15. Jabborova, A. (2023). THE CATEGORY OF PERSON IN ENGLISH GRAMMAR. *Modern Science and Research*, 2(8), 367-375. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/23467>
16. Jabborova, A. (2023). THE CATEGORY OF PERSON IN ENGLISH GRAMMAR, THE ANALYSIS OF THEIR USE IN "LOVY OF LIFE" WRITTEN BY JACK LONDON. *Modern Science and Research*, 2(9), 97-108. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/24087>
17. Jabborova, A. . (2023). PROBLEMS TO LEARN LANGUAGES. *Modern Science and Research*, 2(10), 780-786. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/24706>
18. Jabborova, A. (2023). THE WAYS TO LEARN ENGLISH EFFECTIVELY. *Modern Science and Research*, 2(10), 23-30. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/24965>
19. Shokir o'g'li, S. U. (2023). MAHALLANING JAMIYAT IJTIMOIY TARAQQIYOTDAGI O'RNI. *Научный Фокус*, 1(6), 369-371.
20. O'gli, S. U. S. (2023). ELUCIDATION OF ISSUES OF THE HISTORY OF BUKHARA GUZARS IN OA SUKHAREVA AND HER

## FAN, TA'LIM, TEKNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

STUDIES. *International Journal Of History And Political Sciences*, 3(11), 30-35.

21. Shokir o'gli, S. U. (2023). The Essence of State Policy on Youth in New Uzbekistan. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education* (2993-2769), 1(9), 554-559.
22. Shokir O'g'li, S. U. (2023). THE IMPORTANCE OF THE MAHALLA SYSTEM'S REFORMATIONS IN NEW UZBEKISTAN. *International Journal Of History And Political Sciences*, 3(10), 25-30.
23. Sadullayev, U. (2023). THE ROLE OF THE NEIGHBORHOOD IN RAISING A SPIRITUALLY MATURE GENERATION. *Modern Science and Research*, 2(10), 488-493.
24. Sadullayev, U. (2023). O'zbekistonda xotin-qizlarga berilayotgan e'tibor: mahalla boshqaruvida xotin-qizlarning roli. In *Oriental Conferences* (Vol. 1, No. 1, pp. 551-556). OOO «SupportScience».
25. Sadullayev, U. (2023). THE ROLE OF THE NEIGHBORHOOD IN THE SOCIAL DEVELOPMENT OF SOCIETY. *Modern Science and Research*, 2(10), 755-757.
26. Shokir o'gli, U. S. (2023). MILLIY QADRIYATLARIMIZ ASROVCHISI. *Journal of new century innovations*, 35(1), 79-80.
27. Sadullayev, U. (2023). THE ROLE OF WOMEN IN NEIGHBORHOOD MANAGEMENT IN UZBEKISTAN. *Modern Science and Research*, 2(9), 132-135.
27. Ismatovna, I. L. (2023). Improvement of Quality of Knowledge by Using Videos at Lessons. *JOURNAL OF SCIENCE, RESEARCH AND TEACHING*, 2(4), 100-102.
28. 20. Idiyeva, L. I. (2017). LISTENING AT LESSONS OF A FOREIGN LANGUAGE. *Достижения науки и образования*, (5), 65-66.
29. 21. Ismatovna, I. L. (2021). Typology of parts of speech and content of grammatical categories in two languages. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(8), 53-57.
30. Хасанова Шахноза Баходировна. (2024). РОЛЬ ИНТЕРНЕТ-СЛЕНГА В СИСТЕМЕ РУССКОГО ЯЗЫКА. *TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN*, 2(5), 235–243.  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.11455009>
31. Хасанова, Ш. (2024). ИСТОРИЯ ИЗУЧЕНИЯ ПАРЕМИИ СОВРЕМЕННОЙ ЛЕКСИКОЛОГИИ. *Modern Science and Research*, 3(5),

## FAN, TA'LIM, TEKNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

1231–1238. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/33333>

32. Хасанова Шахноза Баходировна. (2024). ФИЛОСОФСКАЯ ПРИРОДА ЛИРИКИ И. АННЕНСКОГО. МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА, 2(5), 258–267. <https://doi.org/10.5281/zenodo.11188698>

33. Хасанова Шахноза Баходировна. (2024). ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ ПРИ ОБУЧЕНИИ ПРОИЗНОШЕНИЮ, ГРАММАТИКЕ, ЛЕКСИКЕ И ПЕРЕВОДУ. МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА, 2(4), 431–440. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10968956>

34. Xasanova, III. (2024). PHRASEOLOGICAL UNITS OF THE RUSSIAN LANGUAGE. MODERN SCIENCE AND RESEARCH, 3(4), 128–133. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10936168>

35. Баходировна , X. III. . (2024). Из Истории Изучения Пословиц И Поговорок. *Miasto Przyszłości*, 46, 513–520. Retrieved from <https://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/2892>

36. Xasanova, III. (2024). <https://doi.org/10.5281/zenodo.10651477>. MODERN SCIENCE AND RESEARCH, 3(2), 425–435. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10651477>

37. Xasanova, S. (2024). DIFFERENCE BETWEEN PROVERB AND SAYING. MODERN SCIENCE AND RESEARCH, 3(1), 140–147. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10467418>

38. Xasanova, S., & murodova, D. (2023). REPRESENTATION OF THE SYSTEMIC RELATIONS OF RUSSIAN VOCABULARY IN PROVERBS AND SAYINGS. *Modern Science and Research*, 2(10), 276–280. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/24346>

39. Xasanova, S. (2023). USING EXPRESSIVE VOCABULARY IN RUSSIAN PROVERBS. *Modern Science and Research*, 2(10), 403–408. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/25248>

40. Hasanova, S. (2023). SYSTEM RELATIONS IN THE RUSSIAN LANGUAGE VOCABULARY. *Modern Science and Research*, 2(9), 72–74. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/23900>

## FAN, TA'LIM, TEKNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

41. Баходировна, Х. Ш. (2023). Гендерная Лексика В Русском Языке. *International Journal of Formal Education*, 2(11), 324–331. Retrieved from <http://journals.academiczone.net/index.php/ijfe/article/view/1505>
42. Xasanova Shaxniza Baходировна. (2023). РЕПРЕЗЕНТАЦИЯ СИСТЕМНЫХ ОТНОШЕНИЙ РУССКОЙ ЛЕКСИКИ В ПОСЛОВИЦАХ И ПОГОВОРКАХ. *International journal of education, social science & humanities. finland academic research science publishers*, 11(4), 1220–1226. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7847968>
43. Xasanova, S. (2023). STRUCTURAL – SEMANTIC CHARACTERISTICS OF PROVERBS. *Modern Science and Research*, 2(12), 619–625. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/27109>
44. Nigmatova Gulnoz Khamidovna, & Khasanova Shakhnoza Bakhodirovna. (2022). System Relations in the Vocabulary of the Russian Language. *Global Scientific Review*, 3, 44–48. Retrieved from <https://www.scienticreview.com/index.php/gsr/article/view/22>
45. Shaxnoza Baxadirovna, X. (2023). PROVERBS IN THE LEXICOGRAPHICAL ASPECT. *International Journal of Formal Education*, 2(12), 429–437. Retrieved from <http://journals.academiczone.net/index.php/ijfe/article/view/1771>
46. Xasanova, S. (2024). DIFFERENCE BETWEEN PROVERB AND SAYING. *Modern Science and Research*, 3(1), 140–147. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/27853>
47. Xasanova, S. (2024). NAMES OF PERSONS IN RUSSIAN, UZBEK PROVERBS AND SAYINGS. *Modern Science and Research*, 3(2), 425–435. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/29049>
48. Xasanova, Sh. B. (2023). ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ВЫРАЗИТЕЛЬНЫХ ВОЗМОЖНОСТЕЙ ЛЕКСИКИ В РУССКИХ ПОСЛОВИЦАХ. *Modern Science and Research*, 2(10), 403–408. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/25248>